O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILINING KATTA IMLO LUG‘ATI

90 000 ga yaqin so‘z

Filologiya fanlari doktori, professor
N.M.Mahmudov tahriri ostida

Toshkent:
«Kafolat print company» nashriyoti,
2023

UDK: 811.512.133(038)
KBK 81.2 O‘zb
M14

O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati. – Toshkent: «Kafolat print company» nashriyoti, 2023. - 648 b.

Tuzuvchilar:

E.A.Begmatov filologiya fanlari doktori, professor
A.P.Madvaliyev, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Y.R.Odilov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

D.Lutfullayeva, filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Iskandarova, filologiya fanlari doktori, professor

Ushbu lug‘at lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida tartib berilgan, o‘zbek tili leksikasida, bir qator so‘zlar imlosida keyingi yillarda ro‘y bergan sezilarli o‘zgarishlarni hisobga olgan, avvalgi imlo lug‘atlariga nisbatan so‘z va terminlarni kengroq aks ettirgan lug‘atdir. U 2013-yilda nashr etilgan «O‘zbek tilining imlo lug‘ati» asosida nashrga tayyorlandi. Lug‘at ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi o‘qituvchi, o‘quvchi va talabalarga, ommaviy axborot vositalari xodimlariga, nashriyotlar muharrirlari va musahhihlariga, umuman, keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2022-yil 21-sentyabrdagi, 5-majlis bayonnomasi).

ISBN 978-9943-9256-1-8

© «Kafolat print company» nashriyoti, 2023

SO‘ZBOSHI

Adabiy til yozma shaklining me’yorlashuvi va takomilida, shuningdek, og‘zaki hamda yozma nutq orasidagi bog‘liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda imlo lug‘atlari muhim rol o‘ynaydi. Imlo lug‘atlari nafaqat so‘zlarning yozma shakli, balki og‘zaki talaffuz shaklining ham me’yorlashuvi va uning muayyan turg‘un, adabiy holatda bo‘lishiga xizmat qiladi, zero, aksariyat so‘zlar yozma shaklga asoslangan holda talaffuz qilinadi. Imlo lug‘ati tilning lug‘aviy boyligini o‘zida jamlovchi va saqlovchi ishonchli manba hamdir, chunki u boshqa tip lug‘atlarga kiritilmaydigan ba’zi so‘z va so‘z shakllarini ham qamrab oladi.

Imlo lug‘atlari yozma nutq madaniyatining, imloviy savodxonlikning muhim qurolidir.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimlari tomonidan tuzilgan, 85000 dan ortiq so‘z va so‘z shakllarini qamragan o‘zbek lotin yozuvidagi katta hajmli imlo lug‘ati bundan to‘qqiz yil oldin nashr etilgan edi.[1] Qayd qilingan lug‘at tuzilgandan keyin o‘tgan davr mobaynida o‘zbek tilining lug‘aviy boyligida, imloviy me’yorlarida bir qator siljishlar, o‘zgarishlar yuz berdi. Tilda yangi so‘z va terminlar paydo bo‘ldi, o‘zbek tiliga yangi davrning ijtimoiy, ilmiy, moddiy-ma’naviy, siyosiy-mafkuraviy sohalarida ro‘y bergan o‘zgarishlarni, tushunchalarni anglatuvchi yangi so‘z va terminlar kirib keldi. Ba’zi hollarda so‘zlarni so‘zlashuvga xos talaffuz shakllarida yozish ham ko‘zga tashlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining yetakchi ilmiy xodimlari tomonidan ushbu «O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati» tuzildi va nashrga tayyorlandi. Unda 90000 ga yaqin so‘zning to‘g‘ri imloviy shakli berilgan. Mazkur lug‘at o‘zbek tilining hozirda mavjud imlo lug‘atlaridan: a) so‘zligining boyligi; b) imlosi qiyin va munozarali bo‘lgan, hozirga qadar imlo lug‘atlariga kiritilmay kelayotgan so‘zlarni ham qamrab olganligi; d) nashr etilgan va etilayotgan boshqa tip lug‘atlar (izohli, ensiklopedik, terminologik va b.)ning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olganligi; e) keyingi o‘ttiz yil davomida o‘zbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, ko‘pchilik tomonidan ma’qul deb topilayotgan ijobiy imloviy o‘zgarishlarga e’tibor berganligi; f) nihoyat, mustaqillik davrida o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘z va terminlar yozilish shaklining ilmiy-imloviy baholangan holda lug‘at tarkibiga kiritilganligi bilan farqlanadi.

---

[1] O‘zbek tilining imlo lug‘ati / E.Begmatov, A.Madvaliyev; muharrir N.Mahmudov. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 528 b.

«O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati» so‘zligi «O‘zbek tilining imlo lug‘ati» (2013), 5 jildli «Ўзбек тилининг изоҳли луғати», 12 jildli «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», bir qator fan sohalari terminologik lug‘atlari, oliy va o‘rta maktab darsliklari, gazeta va jurnallardan to‘plangan so‘zlardan foydalanib tuzildi. Lug‘at O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida»gi qarori bilan qabul qilingan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ga asoslangan holda yaratildi.

Lug‘at marhum filologiya fanlari doktori, professor E.A.Begmatov, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim A.P.Madvaliyev hamda filologiya fanlari doktori, professor Y.R.Odilovlar tomonidan tuzildi. Mualliflar lug‘atga so‘z to‘plash, so‘zligini tuzish, so‘zning imloviy shaklini va maqbul me’yorlarni ilmiy baholash ishlarini amalga oshirdilar. Lug‘at so‘zligini kompyuterda ko‘chirish, uni nashrga tayyorlash jarayonidagi barcha texnik ishlarni bajarishda institut ilmiy xodimlaridan G‘.Ismoilov, A.Saidnomanov, L.Mirzajonova va X.Mustafoyevalar qatnashdilar. Lug‘at qo‘lyozmasidagi ba’zi nuqsonlarni bartaraf qilish ishiga lug‘atning mas’ul muharriri, filologiya fanlari doktori, prof. N.Mahmudov munosib hissa qo‘shdi.

Adabiy tilning imloviy me’yorlarini belgilash g‘oyatda mas’uliyatli va qiyin ishdir. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida hozirga qadar turli tipdagi o‘nlab imlo lug‘atlari tuzilgan bo‘lsa-da, bu tip lug‘atlarni tuzishning ilmiy asos va tamoyillari, lug‘atga kiritish lozim bo‘lgan materialning xarakteri va tarkibi, imlo lug‘atlari bilan kundalik yozuv amaliyotida yuz beradigan tafovutlar va shularga bog‘liq holda imlo qoidalarini takomillashtirib borish kabi ko‘pgina masalalar o‘zbek tilshunosligida hali yetarli tadqiq qilinmagan. Shu sababli har qanday imlo lug‘atida ham ayrim nuqsonlar, munozarali o‘rinlar bo‘lishi tabiiydir. Mana shu kabi o‘rinlarni bilishga, aniqlashga yordam beruvchi tanqidiy fikrlarni, lug‘atni takomillashtirishga ko‘maklashuvchi fikr-mulohazalarni lug‘at tuzuvchilari minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

Mualliflar lug‘at yuzasidan bildiriladigan taklif va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborilishini so‘raydilar:

Toshkent, 100060, Shahrisabz tor ko‘chasi 5-uy,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

LUG‘ATNING TUZILISHI VA TARKIBI

1. Lug‘atga kiritilgan so‘zlar qat’iy alifbo tartibida joylashtirilgan. Demak, zarur so‘zni undan alifbo tartibi bo‘yicha qidirish kerak bo‘ladi.

2. Lug‘atga hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning barcha uslublarida qo‘llanayotgan me’yoriy leksika kiritilgan.

Ularning asosiy turlari quyidagilardir:

– o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan so‘zlar;

– o‘zbek tilining ilmiy uslubiga xos fan-texnika va axborot-kommunikatsiya terminlari;

– xalq hunarmandchiligi sohasida faol qo‘llanuvchi kasb-hunar atamalari (professional leksika);

– etnonimlar, tarixiy unvon va mansab nomlari.

3. Lug‘atga o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir matnlarda uchraydigan ba’zi so‘zlar ham kiritilgan. Bunda ta’lim tizimida, nashriyot va matbuot ishlarida shunday so‘zlarning yozilishini bilish zarurati hisobga olingan.

4. Lug‘atda hozirgi o‘zbek tilida uchraydigan qo‘shma, juft va takroriy so‘zlarga ham o‘rin berilgan. Bunda qismlari qo‘shib yoki ajratib yoziluvchi so‘zlar imlosiga alohida diqqat qilingan.

5. Lug‘atda hozirgi o‘zbek adabiy tili va imlo amaliyotida ikki xil talaffuz qilinayotgan va yozilayotgan ba’zi imloviy variantlarning barqarorlashgan shaklini berishga harakat qilingan. Agarda bunday so‘z variantlari so‘zlikda ketma-ket emas, turli o‘rinlarda kelsa, ular ikki marta qayd qilindi. Masalan: *adab* va *odob*, *odob* va *adab*.

6. So‘zning ilm-fan yoki kasb-hunar sohasiga oid so‘z (termin) ekanligi yoxud mumtoz adabiyot tiliga mansubligi, tarixiy so‘z yoki etnonimligi qavs ichida maxsus qisqartmalar orqali ta’kidlandi. Chunonchi: *koronavirus (tib.)*, *burun* (*geog.*), *bade* (*mum. ad.*), *konsensus* (*huq.*).

7. Lug‘atda atoqli otlar berilmadi. Ammo atoqli otdan hosil bo‘lgan turdosh so‘z va terminlar mavjud: *rentgen* (*tex.*, *tib.*), *nyuton* (*fiz.*), *rizamat* (*uzum navi*) kabi.

8. Ba’zi leksemalarning qaysi so‘z turkumiga mansubligi uncha aniq bo‘lmagan hollarda, bu holat maxsus qisqartma orqali ta’kidlandi: *pichma* (*sft.*), *pishitma* (*sft.*), *buyur* (*ot*), *yo* (*und.*), *yo* (*bog‘l.*), *yo‘liga* (*rvsh.*) kabi.

9. Lug‘atda bir omonimik qator (uya)ni tashkil etuvchi shakldosh so‘zlar deyarli berilmadi. Faqat zarurat tug‘ilgan hollardagina, ya’ni omonimik qatordagi so‘zlarning omonimligini aniq ko‘rsatish shart bo‘lgandagina ular omonim tarzida lug‘atga kiritildi. Masalan:

pay (*anat.*)	*saroy* (*qasr*)
pay (*~ puli*)	*saroy* (*etn.*)

10. Rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar, o‘zbekcha talaffuzga moslashgan ba’zi holatlarni (*vashik, kalish, botinka, valenka, piyma, sutka, kurs*) istisno qilganda, joriy qoidalar talabiga ko‘ra, o‘zlashgan shaklida o‘zgarishsiz yozildi: *opponent, aloe* kabi. Ayrim o‘rinlarda ingliz va boshqa tillardan o‘zlashgan yangi so‘zlar o‘zbekcha talaffuzi asosida berildi. Masalan: *blutus, aypet* kabi.

11. Lug‘atda ba’zi o‘zi mustaqil qo‘llanmaydigan so‘zlar ham berildi va qavs ichida tarkibida shunday so‘z bo‘lgan so‘z birikmasi yoki juft so‘z keltirildi: *chippa* (~ *yopishmoq*), *zab* (~ *ish bo‘ldimi*?), *atvor* (*fe’l-* ~).

12. So‘zning ma’nosi kitobxon uchun tushunarsiz bo‘lgan yoki ushbu so‘zshaklning mavjudligi shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan hollarda, qavs ichida ularning muqobillari keltirildi yoki shunday so‘z ishtirok etuvchi so‘z birikmasi berildi: bunda asosiy so‘z takroriy qo‘llanadigan bo‘lsa, u maxsus belgi (~) bilan almashtirildi: *adam* (*yo‘qlik*), *musallas* (*uchburchak*); *badar* (~ *ketmoq*), *hasana* (*qarzi* ~) kabi.

13. Ajratib yoziluvchi forscha izofali birikmalar hamda bir so‘z ishtirokida hosil qilingan ayrim ajratib yoziluvchi birikmalar asosiy so‘z (komponent) tagidan biroz ichkari chekingan holda keltirilgan:

arz
arzi ahvol
arzi niyoz
hifz
hifzi lison
hifzi sihat

ana
ana bu
ana bunaqa
ana xolos
ana shunday kabi.

14. Ba’zi so‘zlar ikki shaklda faol qo‘llanmoqda va yozilmoqda. Binobarin, ularning biriga ustunlik berish qiyin. Shu sababli bunday so‘zlarning har ikkala shakli yonma-yon yoki alifbo tartibida o‘z o‘rnida keltirildi: *bejamoq* va *bezamoq*, *biokimyo* va *bioximiya*.

15. So‘zlarning erkalash-kichraytish shakllari lug‘at so‘zligiga deyarli kiritilmadi. Ammo bunday so‘z terminologik ma’noda kelganda, ma’lum belgi bilan ta’kidlangan holda lug‘atga kiritildi: *labcha* (*anat.*), *belcha* (*hun.*) kabi.

16. Lug‘at so‘zligiga morfologik shakllangan ko‘plab so‘zlar bilan birga ba’zi xususiyatlari bilan alohida ajralib turadigan so‘zshakllar ham kiritildi. Masalan: 1) otlar bosh kelishikda, birlik sonda berildi. Biroq ba’zi urug‘, qabila va sulola nomlari hamda ayrim ilm-fan terminlari birlik sonda ishlatilmagani yoki juda kam qo‘llangani uchun ko‘plik sonda berildi;

2) otlarning egalik qo‘shimchalarini olgan shakllari berilmadi. Biroq bunday shakldagi otlar qarashlilikni emas, erkalash va suyish ma’nolarini anglatganda, leksik birlik sifatida lug‘atga kiritildi: *jonim, jonginam, xonim* kabi;

3) sifatdoshning ko‘chma ma’noda qo‘llanganlari berildi. Masalan, *sotilgan* (*xoin* ma’nosida), *kelishgan* (*go‘zal* ma’nosida), *o‘tmas* (*o‘tkir* so‘zining antonimi);

4) qo‘shma fe’llar yoki ko‘makchi fe’lli qo‘shilmalarning faqat ikki so‘zdan fonetik o‘zgarish orqali hosil bo‘lgan turlari berildi, ikkidan ortiq so‘zdan hosil bo‘lgan qo‘shma fe’llar berilmadi: *ayta olmoq* va *aytolmoq, yoza bermoq* va *yozavermoq* kabi;

5) juft va takror fe’llar faqat otlashgan hollardagina berildi: *qo‘ydi-chiqdi* (oilaviy janjal), *bordi-keldi* (munosabat), *oldi-sotdi* (savdo munosabati), *ur-sur* (ur-sur bo‘ldi), *yugur-yugur* (yugur-yugur qilmoq), *chop-chop* (chop-chop qilmoq).

6) undovga ko‘chgan *horma, tushmagur; qurmagur* kabi so‘zlar ham lug‘atga kiritildi.

LUG‘ATDA BERILGAN SO‘ZLAR IMLOSIGA OID BA’ZI QAYDLAR

Imlo lug‘atining asosiy vazifasi so‘zlarning to‘g‘ri imloviy shaklini belgilash, uni qayd qilish, keng ma’noda esa til leksikasini imloviy jihatdan adabiy me’yorga solishdir. Ammo imlo lug‘atlari kimlarga mo‘ljallanganligiga, so‘zlarni qamrash hajmiga ko‘ra farqlanadi. Shu jihatdan ham katta hajmli (umumtil) lug‘atlaridan tashqari umumta’lim maktablari o‘quvchilari, hatto boshlang‘ich sinflar uchun ham alohida lug‘atlar tuziladi. Katta hajmli imlo lug‘atlari keng xalq ommasining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yaratiladi. Shu sababli bunday lug‘atdan nafaqat o‘rta va oliy maktab o‘quvchilari, o‘qituvchilari, balki nashriyot va matbuot, radio va televideniye xodimlari, umuman, keng ziyolilar ommasi foydalanadi.

Ba’zan til imloviy me’yorlarining vazifasini juda keng tushunish, uni tilning boshqa tur me’yorlari vazifasi bilan qorishtirib yuborish hollari uchraydi. Masalan, imlo haqida gap borgan ba’zi ishlarda *vulkan* emas, *vulqon, xatom* emas, *xatoyim, paltom* emas, *paltoyim, omixta* emas, *omuxta, tepag‘on* emas, *tepong‘ich* yozilishi kerak degan fikrlar uchrab turadi, boshqacha aytganda, tilning orfoepik va lug‘aviy me’yorlari vazifasi imloviy me’yordan talab qilinadi. Holbuki, *vulkan*mi yoki *vulqon, omixta*mi yoki *omuxta* deb aytilishining qaysi biri me’yor ekanini, avvalo, orfoepiya qoidalari belgilashi lozim. Xuddi shuningdek, *tepag‘on* va *tepong‘ich*dan qaysi biri maqbulligini baholash morfologik, aniqrog‘i, so‘z yasash me’yorining ishidir. Imlo lug‘atining vazifasi esa keltirilgan variant va ekvivalentlardan qaysi biri maqbul deb topilsa, o‘sha so‘zning to‘g‘ri yozilishini belgilash hamda lug‘atga kiritish sanaladi.

Ma'lumki, imlo lug'atlari tilning qabul qilingan joriy imlo qoidalari talablariga amal qilgan holda tuziladi. Imlo qoidalari imlo lug'atining ilmiy-nazariy asosidir. Binobarin, qabul qilingan imlo qoidalari ilmiy jihatdan asosli, amaliy jihatdan qulay, iloji boricha pishiq-puxta bo'lmog'i kerak. Ammo har qanday imlo qoidalari ham ideal darajada mukammal bo'lolmaydi. Bunga sabab, birinchidan, qoidalar ko'p holda yozuv amaliyotidagi barcha holatlarni to'liq qamrab ololmaydi; ikkinchidan, qoidalashtirilgan hodisalar ba'zan yetarli asoslanmaganligidan yozuv amaliyotiga singmaydi; uchinchidan, tilning ma'lum davr rivojida yangi imloviy hodisalar, holatlar, imloviy an'analar paydo bo'ladi va ular imlo qoidalarini qayta ko'rib chiqishni, uni takomillashtirishni talab qiladi. Bularning barchasi, shubhasiz, tuziladigan imlo lug'atlarining saviyasiga ham ta'sir qiladi.

Imlo qoidalarining talab va muammolari haqida gap borganda yana bir masalaga to'xtalish o'rinlidir. Bu – qoidalarning sodda, tushunarli, jo'yali, esda yaxshi saqlanadigan bo'lishi masalasidir. Imlo qoidasini tuzganda, maktab o'quvchisining saviyasi va bilim darajasi ham ko'zda tutilishi kerak. Shu sababli imlo qoidalarini ilmiy-nazariy fikrlarning ifodasi tarzida emas, har bir so'z shaklida ko'zga aniq tashlanib turadigan belgi, esda saqlash oson bo'lgan biror tipik xususiyat, tipik lisoniy modellar asosida tuzish, bizningcha, eng maqbul yo'ldir.

Quyida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi negizida tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni kitobxonlar e'tiboriga havola qilamiz.

O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. **A a** harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og‘a; sentabr; noyabr* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor; zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, *vaqt, vahm* kabi so‘zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

2. **O o** harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor; termos* kabi o‘zlashma so‘zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. **I i** harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o‘tin, o‘rik, bo‘lim* kabi oldingi bo‘g‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **U u** harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; ko‘zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so‘zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg‘ovul, chirmovuq* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **O‘ o‘** harfi *o‘t, o‘q, o‘zbek, o‘simlik, do‘ppi, bo‘tako‘z, semizo‘t, gulko‘rpa, noo‘rin* kabi so‘zlarda orqa qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **E e** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e’lon, ne’mat, she’r* kabi so‘zlarda old qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba’zan **y** undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

v) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

g) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir; oila* kabi;

d) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilari so‘z ichida kelganda, ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. **B b** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so‘zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so‘zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so‘zlarda ba’zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **P p** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so‘zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **V v** harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so‘zlarda ovozdor sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda **v** ba’zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. **F f** harfi:

1) *fan, fe’l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so‘zlarda **f** tovushi ba’zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **M m** harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so‘zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **D d** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so‘zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo‘r* kabi so‘zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **T t** harfi *tong, tun; butun, o‘tin, o‘t, kut* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) *zar, zamon, toza, o‘zbek, yoz, g‘oz* kabi so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar; bo‘zchi, tuzsiz* kabi so‘zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **S s** harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq belgisi (’) qo‘yiladi: *Is’hoq, as’hob* kabi.

18. **J j** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar; garaj, tiraj* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi *choy, chevar; chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor; diyor* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi *lola, loyiq, la’l, iloj, mahal* kabi so‘zlarda sirg‘aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko‘rinmaslik* kabi so‘zlarda **n** tovushi ba’zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **G g** harfi *gul, go‘zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so‘zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **K k** harfi *ko‘l, ko‘ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi so‘zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Y y** harfi *yo‘l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi so‘zlarda til o‘rta sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, ko‘ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so‘zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **G‘ g‘** harfi *g‘oz, bag‘ir; tog‘* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **X x** harfi *xabar; xo‘roz, xohish, xushmud, baxt, axborot, mix* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **H h** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, past, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

32. ' – tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

Asos va qo'shimchalar imlosi

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda, **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz; so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq; o'yna – o'ynoqi, sayra – sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri – og'riq, qavi – qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: *ol – oluv, yoz – yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz – uzuq, yut – yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, yurak – yuragim, kubok – kubogi, bek – begi; tayoq – tayog'i, qoshiq – qoshig'i, yaxshiroq – yaxshirog'i, yo'q – yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k, q** tovushi aslicha aytiladi va

yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan so‘zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o‘rin, qorin, burun, o‘g‘il, bo‘yin, ko‘ngil* kabi ba’zi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, *qayir, ayir* kabi fe’llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo‘shimchasi qo‘shilganda, *ikki, olti, yetti* so‘zlariga **-ov, -ala** qo‘shimchalari qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o‘rin – o‘rnim, qorin – qorni, burun – burning, o‘g‘il – o‘g‘ling, ko‘ngil – ko‘ngli, yarim – yarmi; qayir – qayril, ulug‘ – ulg‘ay, sariq – sarg‘ay, ikki – ikkov, ikki – ikkala, yetti – yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o‘sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha** qo‘shimchalari qo‘shilganda, **n** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o‘shancha kabi;* bu olmoshlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi: *buningiz, o‘shanisi* kabi;

3) **o, o‘, u, e** unlilari bilan tugaydigan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi:

a) ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki **-lari**) shaklida tovush orttirmay qo‘shiladi: *bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro‘, mavqe, mavzu, avzo* so‘zlariga I, II shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, bir **y** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro‘yim, obro‘ying; obro‘yimiz, obro‘yingiz* kabi; III shaxs egalik qo‘shimchasi *parvo, avzo, obro‘, mavqe* so‘zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so‘zlariga esa **-si** shaklida qo‘shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan so‘zga ham III shaxsda **-si** qo‘shiladi: *dohiysi* kabi);

4) ***men, sen*** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo‘shimchalari qo‘shilganda, qo‘shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo‘shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo‘shimchalari ba’zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo‘shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o‘rin kelishigi va chiqish kelishigi qo‘shimchasining, o‘tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko‘rsatkichi **-di** qo‘shimchasining boshidagi undosh ba’zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo‘shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so‘zlardan fe’l yasovchi **-illa** (*chirilla, taqilla*) qo‘shimchasi so‘z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lganda, **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga (*kel* so‘zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo‘shiladi: *quvdir; egdir; kuldir; yondir; o‘tkazdir; tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo‘shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir; kestir; uyaltir; chaqirtir* kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko‘rsatkichi **-gin,** shuningdek, **-gina** qo‘shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina* kabi;

6) **q** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat’i nazar, **g** yoziladi: bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha kabi.

Qo‘shib yozish

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar; hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, umumxalq, bug‘doyrang, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. **-(a)r** (inkor shakli **-mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar; otboqar; cho‘lquvar; ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

40. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe’llar qo‘shib yoziladi: *pirpirak* (*pir-pir+ak*), *bizbizak* (*biz-biz+ak*), *hayhayla* (*hay-hay+la*), *gijgijla* (*gij-gij+la*) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan bildiruvchi qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo‘ra, nosqovoq, ko‘zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di, Urto‘qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *mingboshi, so‘zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki **obod** so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Mirzacho‘l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo, Ko‘hna Urganch, O‘rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika; teleko‘rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O‘zXDP MK (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko‘rsatiladi: *yo‘o‘q, nimaa, himm, ufff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to‘rt, o‘n-o‘n beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o‘ylab-netib, so‘ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir; duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo‘shlashmoq* kabi;

2) juft so‘z qismlari orasida **-u (-yu)** bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: *do‘st-u dushman (do‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo‘yasan, uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to‘ppa-to‘g‘ri, bab-baravar* kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so‘zi qo‘shib yoziladi).

53. So‘zning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko‘chama-ko‘cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi. *ro‘baro‘, darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo‘y-e, yashang-e, o‘g‘lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *keldimi?, keliboq, o‘ziyoq, ko‘rganov, ko‘rdiyov, mengina, qo‘shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha **(-)** qo‘yiladi: *7-sinf, 5-“A” sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o‘quvchilari, 60-yillar; 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr; X sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo‘shma fe’lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta’sir et, tamom bo‘l, sotib ol, olib kel , olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko‘makchi fe’l va to‘liqsiz fe’l mustaqil fe’ldan ajratib yoziladi: *aytib ber; olib ko‘r; so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe’l bilan yordamchi fe’l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: *aytaver* (*ayta ber*), *boroladi* (*bora oladi*), *bilarkan* (*bilar ekan*) kabi.

59. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar; kun bo‘yi* kabi. Lekin *bilan* ko‘makchisining **-la** shakli, *uchun* ko‘makchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha** so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas,*

biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq, yer** so'zlari bilan ishlatilganda, bir **y** tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar; tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor* (*guli beor*), *dardisar* kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yarqoq* (yaylov), *Qoratog', Pomir* (tog'lar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong"* (mehmonxona), *"Saodat"* (firma), *"Navro'z"* (xayriya jamg'armasi), *"Kamalak"* (matbaa birlashmasi), *"G'uncha"* (bog'cha), *"Botanika"* (sanatoriy), *"Paxtakor"* (stadion), *"Qutlug' qon"* (roman), *"Dilorom"*

(opera), *"Tanovar"* (kuy), *"Ozodlik"* (haykal), *"Jasorat"* (yodgorlik), *"Sino"* (sovutkich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *"O‘zbekiston Qahramoni"* (unvon), *"Oltin Yulduz"* (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sog‘lom avlod uchun"* (orden), *"O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi"* (faxriy unvon), *"Matbaa a'lochisi"* (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi. *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: *"Bu men", – qo‘rqibgina javob berdi ko‘laga* (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda, bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:*

– mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so‘zlar; 2) o‘zbekcha so‘zlar; 3) tojik tilidan

kirgan so‘zlar; 4) arab tilidan kirgan so‘zlar; 5) rus tilidan kirgan so‘zlar (“O‘zbek tili” darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSh* (*Amerika Qo‘shma Shtatlari*), *BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AES* (*atom elektr stansiyasi*) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

Ko‘chirish qoidalari

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor; paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’-om* kabi.

76. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy*, *e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi **(sh, ch, ng)** birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *AQSh, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: *5-“A” sinfi, V “B” guruhi, 110 gr; 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *“Navro‘z – 92”* (festival), *“O‘qituvchi – 91”* (ko‘rik tanlov), *“Andijon – 9”*, *“Termiz – 16”* (g‘o‘za navlari), *“Boing – 767”* (samolyot), *“Foton – 774”* (televizor) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi.

Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy birikmalar oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

* * *

AYRIM SO‘ZLARNING YOZILISHI BO‘YICHA LUG‘AT TUZUVCHILARNING TAVSIYALARI

Yuqorida keltirilgan qoidalar bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali o‘zlashtirilgan bir turkum ruscha va baynalmilal so‘z-terminlarning yangi imloda qanday yozilishi alohida qoidalashtirilmagan. Bu – o‘zbek kirill yozuvidagi ikki tovushni ifodalovchi **ё, ю, я, е** (so‘z o‘rtasida unlidan hamda ayirish va yumshatish belgilaridan keyin), **ц** harflari ishtirok etgan so‘zlarni o‘zbek lotin yozuvida qanday yozish masalasidir. Bunday so‘zlarning yangi alifboda yozilishi keyinchalik, «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlangandan so‘ng tayyorlangan bir qancha qo‘llanmalarda bayon qilingan.

Prof. Sh.Rahmatullayev dastlab «Ўзбек лотин алифбоси» (Тошкент, 1995), keyin «Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси» (Тошкент, 1999) qo‘llanmalarida o‘zbek kirill alifbosidagi **ё, ю, я** harflari o‘rniga o‘zbek lotin alifbosida qaysi harflarni yozish ular bajaradigan vazifaga bog‘liq, deb ularni quyidagicha yozishni tavsiya etadi:

«1. **ё, ю, я** ҳарфлари икки товушни (**й**+унли) ифодалашга хизмат қилса, бу ҳарфлар ўрнига **yo, yu, ya** ҳарфлари ёзилади: *заём – zayom, юмор – yumor, ядро – yadro, ёмғир – yomg‘ir, ютуқ – yutuq, яхши – yaxshi* каби.

2. **ё, ю, я** ҳарфлари ўзидан олдин келган ундошнинг юмшоқ эканини кўрсатишга хизмат қилса:

1) асосан **ё** ҳарфи ўрнига **o** ҳарфи, **ю** ҳарфи ўрнига **u** ҳарфи, **я** ҳарфи ўрнига **a** ҳарфи ёзилади: *стажёр – stajor, люстра – lustra, фляга – flaga* каби;

2) сўзнинг талаффузи кескин ўзгариб кетмаслиги учун қисман **ё** ҳарфи ўрнига **yo** ҳарфлари, **ю** ҳарфи ўрнига **yu** ҳарфлари, **я** ҳарфи ўрнига **ya** ҳарфлари ёзилади: *актёр – aktyor; бюро – byuro, снаряд – snaryad* каби.

Кўринадики, **ё, ю, я** ҳарфлари ўзидан олдин келган ундошнинг юмшоқлигини кўрсатиш учун хизмат қилса, ўзбек лотин алифбосида икки хил акс эттирилади»[1].

---

[1] Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет, 1999. 15 – 16-бетлар.

Muallif «so‘zning talaffuzi keskin o‘zgarib ketmasligi uchun» deb o‘z tavsiyasining 2-bandidagi 1-qismga qarshi boradi. Aslida, *stajor* bilan *aktyor*, *lustra* bilan *byuro*, *flaga* bilan *snaryad* so‘zlarida mazkur **ё, ю, я** harflari bir xil pozitsiyada bo‘lib, o‘zbekcha talaffuzda umuman farq qilmay, ikki tovush (**yo, yu, ya**) bilan aytiladi.

Undoshlarning qattiq-yumshoqligi esa rus tili uchun xos bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu holat deyarli farqlanmaydi. Bunday chalkashlik «Ўзбек тилининг қисқача имло луғати» (Тошкент, 1963) dan muallif ajratib olgan **ё, ю, я** harfli so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosida qanday yozish kerakligi haqidagi tavsiyalarda ham uchraydi. Bu masalada birxillikka erishish qiyinligidan bo‘lsa kerak, muallif «қачон бир ҳарф, қачон икки ҳарф ёзишни қоидалаштириб бўлмайди, шу сабабли бундай ҳарф қатнашадиган сўзларнинг тўғри ёзилиши имло луғатида кўрсатилади»[1], deb masalaning murakkabligini tan oladi.

Mazkur qo‘llanmadagi rus tilidan va u orqali boshqa yevropa tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan bir qator so‘zlarda ayirish va yumshatish belgilari **ё, ю, е** harflaridan oldin kelganida, yangi imloda bunday so‘zlardagi **ъ** va **ь** belgilari tashlanib, **ё, ю, е** harflari o‘rniga **yu, ya, ye** harflari yoziladi yoki yumshatish belgisi **о, и** harflaridan oldin kelganida, belgi o‘rniga **y** harfi yoziladi, degan fikrlarga qo‘shilish mumkin.

Y.Abdullayev, D.Xudayberganova hamda A.Ismoilov va L.Raupovalarning qo‘llanmalaridagi ushbu masalaga doir fikr-mulohazalar, tavsiyalar ham Sh.Rahmatullayevning tavsiyalari bilan hamohangdir.[2] Faqat Y.Abdullayevning «Ҳамроҳим» qo‘llanmasidagi tavsiyalarda mazkur harflar mavjud bo‘lgan ruscha va baynalmilal so‘zlarning yangi imloda goh bir, goh ikki harf (tovush) bilan berilishi rus tili imlosi va talaffuziga bog‘liq ekanligi xolisona aytib o‘tilgan. Bunda ham masala oxirigacha hal qilinmay, «бундай сўзлардан мазкур қоидалар доирасига кирмайдиганлари ҳам бор. Уларнинг қандай ёзилиши имло луғатларида кўрсатилади»[3] deyish bilan cheklanilgan. Lekin bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyevlarning «O‘zbek tilining imlo lug‘ati» (1995 va undan keyingi nashrlar) hamda T.Tog‘ayev, G.Tavaldiyeva va M.Akromovalarning «O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati» (1999, 2004) da ham, mazkur tavsiyalarga qaramay, yuqoridagi kabi so‘zlarni yozishda o‘z-o‘zini yoki bir-birini inkor qiladigan holatlar mavjud.

Qo‘lingizdagi lug‘atning tuzuvchilari yuqoridagi kabi chalkashlik,

---

[1] Ko‘rsatilgan manba. 16-bet.

[2] Қаранг: Абдуллаев Й. Ҳамроҳим. Янги алифбо ва имлодан қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Худайберганова Д. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбоси: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2003; Исмоилов А., Раупова Л. Янги ўзбек имлоси: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2003.

[3] Abdullayev Y. Ko‘rsatilgan manba. 47-bet.

anglashilmovchiliklarni hamda mazkur tavsiyalarga imlo amaliyotida nechog‘lik rioya qilinayotganligini (to‘g‘rirog‘i, u qadar amal qilinmayotganligini) hisobga olib (buni o‘zbek lotin alifbosida chop etilgan bir qator nashrlarni ko‘zdan kechirib ishonch hosil qilish mumkin), institutning yetakchi tilshunoslari bilan maslahatlashgan holda, rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida **ё, ю, я** harflari bo‘lgan ruscha va baynalmilal so‘zlarni yangi imloda barcha o‘rinlarda bir xil, ya’ni **yo, yu, ya** harflari bilan yozishni va shu orqali bu sohadagi harxillikni bartaraf etishni eng maqbul yo‘l deb hisoblaydilar va ushbu lug‘atda shunday yo‘l tutdilar ham.

O‘zbek kirill yozuvidagi **ц** harfini o‘zbek lotin yozuvida ifodalash masalasida ham ayrim munozarali o‘rinlar bor. Masalan, bu xususda prof. Sh.Rahmatullayev quyidagilarni yozadi: «Ўзбек кирилл алифбосидаги **ц** ҳарфи ўрнига ўзбек лотин алифбосида:

а) сўз охирида, сўз бошида, олд қўшимчадан кейин, ундошдан кейин s ҳарфи ёзилади: *кварц – kvars, шприц – shpris, целлофан – selloʃan, цилиндр – silindr; антициклон – antisiklon, конструкция – konstruksiya* каби;

б) бошқа ҳолларда унлидан кейин **ts** ёзилади: *глицирин – glitsirin* (тўғриси: *glitserin*), *гербицит – gerbitsit* (тўғриси: *gerbitsid*), *конституция – konstitutsiya* каби»[1].

D.Xudayberganova hamda A.Ismoilov va L.Raupovalar ham o‘z qo‘llanmalarida ushbu fikrni ma’qullagan holda uni aynan takrorlaganlar. Y.Abdullayev esa bu masalaga birmuncha boshqacharoq yondashadi: «Кирилл алифбосидаги **ц** ҳарфи янги ўзбек имлосида қуйидагича берилади:

– сўз бошида, охирида ва сўзнинг ўртасида ундош товушдан кейин келганда, **s** ҳарфи билан: *цех – sex, цирк – sirk, акция – aksiya*;

– сўз ўртасида унли товушдан кейин келса, **ts** ҳарфлари билан ифодаланади: *лицей – litsey, офицер – ofitser, доцент – dotsent*»[2].

